TOSHKENTDAGI SINGAPUR MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.1.44.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOJIBEKOVA ZILOLA SHAVKAT QIZI

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit"

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026-yil

UO‘K: ***336.713:336.761-043.84 (575.1)***

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (Doctor of Philosophy) on economical sciences

Xojibekova Zilola Shavkat qizi
Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish 3

Хожибекова Зилола Шавкат кизи
Повышение эффективности активов коммерческих банков 29

Khojibekova Zilola Shavkat kizi
Improving the efficiency of commercial bank assets 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....62

TOSHKENTDAGI SINGAPUR MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.1.44.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOJIBEKOVA ZILOLA SHAVKAT QIZI

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit"

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5461 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.mdis.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Umarov Zafar Absamatovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Fayzullayev Yodgor** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
	Berdiyarov Baxriddin Tovasharovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/2025.27.12.1.44.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "13" 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100047, Toshkent shahri, Bunyodkor shoh ko'chasi 28-uy. Tel: 71 271 77 01. E-mail: info@mdis.uz

Dissertatsiya bilan Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (04 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047. Toshkent shahri, Bunyodkor shoh ko'chasi 28-uy. Tel: 71 271 77 01.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "30" 10 kuni tarqatildi.
(2026-yil "30" 10 dagi 04 raqamli reestr bayonnomasi).

N.Tuxliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

T.A.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.A.Ishanxodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tijorat banklarining aktivlari samaradorligini ta’minlash, uni o‘sib borishini oldindan rejalashtirish va optimallashtirish, bank daromadlarini oshirishda bankning xarajatlarini oqilona tashkillashtirish, investitsiyalarga mablag‘ kiritishda bank risklarini inobatga olish va oldindan yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarga tayyor turish orqali bank tizimi barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, «2024 yilda bank muammoli kreditlarning jami aktivlardagi ulushi AQSHda 0,95 foiz, Kanadada 0,80 foiz, Shveysariyada 0,85 foiz, Daniyada 0,94 foiz, Buyuk Britaniyada 0,97 foizni tashkil etgan. Shuningdek, aktivlar rentabelligi bo‘yicha AQSHning JP Morgan banki 1,38 foiz, Kanadaning Royal Bank of Canada bankida 0,95 foiz, Avstraliyaning Commonwealth Bank bankida 0,92 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bank kapitali rentabelligi ko‘rsatkichlari JP Morgan banki 18 foiz, Commonwealth Bank 14,5 foiz, Royal Bank of Canada bankida 14,2 foiz va HSBC bankida 12 foizni tashkil etgan»[1]. Tijorat banklarining aktivlari samaradorligini oshirishda banklarning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish, banklarning daromadlarini ko‘paytirish va operatsion xarajatlarni qisqartirish, aktivlar portfeli diversifikatsiya darajasini yanada oshirish, bank risklari darajasini pasaytirish va ularning salbiy oqibatlarini cheklashni taqozo etmoqda.

Jahonda tijorat banklarining aktivlaridan samarali foydalanish va rentabellik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Banklarda aktivlar samaradorligini oshirishda kredit riskini boshqarish bo‘yicha stress-ssenariyning omili sifatida kredit portfelining o‘sishi ko‘rsatkichini kiritish va uni ssenariylar bo‘yicha tasniflash, bank investitsiyalari samaradorligini ta’minlashda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning maksimal darajasi chegara qiymatini minimal darajasini o‘rnatish kabi muhim masalalar borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilishda banklarning aktivlari samaradorligini oshirish, banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldindan aniqlash maqsadida stress-testlar o‘tkazish va bank risk profilini yaratish orqali banklarning barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikada «davlat ulushi mavjud banklar aktivlari sifatining mustaqil baholashdan o‘tkazilishi va, shu jumladan harakatsiz kreditlarga amaliy ko‘maklashish orqali ularning kredit portfellari sifatini yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rilishi»[2], «davlat ishtirokida banklarning mol-mulklarini inventarizatsiya qilish va ular faoliyatiga xos bo‘lmagan aktivlarni aniqlash hamda ularni sotish choralarini ko‘rish, banklarning aktivlarida xorijiy valyutaning ulushini kamaytirish»[3] vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlashda banklarning aktivlari tarkibini optimallashtirish, aktiv operatsiyalar diversifikatsiya darajasi yaxshilash va zamonaviy bank xizmatlari soni va sifatini oshirish, aktivlarga

[1] https://data.worldbank.org/indicator

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 12.05.2020-y.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 12.05.2020-y.

zaxira ajratish orqali ularning samaradorligini yanada yaxshilash bo‘yicha xorij amaliyotini qo‘llash dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi, 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi PF-227-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining aktivlari samaradorligini ta’minlash va uni oshirishning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar – F.Mishkin, A. Berger, Humphrey, Joseph P. Hughes va Loretta J. Mester, Larry M. Seiford va Joe Zhuga, John P. Bonin, Alejandro Micco, Ugo Panizza, Panayotis P. Afanasoglu, Asli Demirgüç-Kunt, Harry Huizinga, Mouna Rekik, Maha Kalai, M.A.Gulamhussen, C.M.Pinheiro, A.F.Pozzolo hamda boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan[4].

MDH olimlaridan O.Lavrushin, L.Dudines, M.Matovnikov, G.Panova, O.Afanasyeva, V.Usoskin, Ya.Mirkinlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida uchraydi[5].

---

[4]Mishkin, F. S. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson.; Berger, A. N., & Humphrey, D. B. (1997). Efficiency of financial institutions: International survey and directions for future research. European Journal of Operational Research, 98(2), 175–212.; Hughes, J. P., & Mester, L. J. (2013). Who said large banks don’t experience scale economies? Evidence from a risk-return-driven cost function. Journal of Financial Intermediation, 22(4), 559–585.; Seiford, L. M., & Zhu, J. (1999). Profitability and marketability of the top 55 U.S. commercial banks. Management Science.; Bonin, J. P., Hasan, I., & Wachtel, P. (2005). Bank performance, efficiency and ownership in transition countries. Journal of Banking & Finance, 29(1), 31–53.; Micco, A., & Panizza, U. (2006). Bank ownership and lending behavior. Economics Letters, 93(2), 248–254.; Athanasoglou, P. P., Brissimis, S. N., & Delis, M. D. (2008). Bank-specific, industry-specific and macroeconomic determinants of bank profitability. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, 18(2), 121–136.; Demirgüç-Kunt, A. & Huizinga, H. (1999). Determinants of Commercial Bank Interest Margins and Profitability: Some International Evidence. The World Bank Economic Review, 13(2), 379-408.; Rekik, M. & Kalai, M. (2018). Determinants of banks’ profitability and efficiency: Empirical evidence from a sample of Banking Systems. Journal of Banking and Financial Economics, 1(9), 5-23.; Gulamhussen, M.A., Pinheiro, C.M., Pozzolo, A.F. International diversification and risk of multinational banks: evidence from the pre-crisis period. J. Financ. Stabil. 13, 30–43, 2017.

[5] Lavrushin O.I. Bankovskoye delo: sovremennaya sistema kreditovaniya: Finansovaya akademiya pri pravitelstve RF. -4-ye izd., stereotip. -M.: KNORUS, 2008. – S. 36-37.; Matovnikov M.Yu. Bankovskaya sistema Rossii i

Mahalliy iqtisodchi olimlaridan Sh.Abdullayeva, T.Bobakulov, F.Xolmamatov, J.Isakov, B. Berdiyarov, U.A.Tuxtaboyev, B.Maqsudov, G.Melibayeva, D.Sharipovalar tomonidan bevosita va bilvosita tadqiq qilingan[6].

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, tijorat banklari aktivlar samaradorligini oshirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf
etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tijorat banki aktivlari samaradorligining iqtisodiy mazmuni hamda nazariy asoslari evolyutsiyasini tadqiq etish;

tijorat banklarida aktivlar samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifini ilmiy va amaliy jihatdan ochib berish;

tijorat banki aktivlari samaradorligining xorij amaliyoti va taqqoslama tahlili asosida mamlakat bank tizimi uchun zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi aktivlari samaradorligining joriy holati va dinamikasini amalga oshirish;

tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda zaxiralar amaliyotidan samarali foydalanishning amaliy jihatlarini tahlil qilish;

bank aktivlari sifatiga ta’sir etuvchi ekonometrik tahlilini amalga oshirish va model ishlab chiqish;

mamlakatimiz banklarida aktivlar samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ochib berish;

bank aktivlari samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublika tijorat banklarida aktivlar samaradorligini aniqlash va uni oshirish mexanizmi tanlangan.

---

dolgosrochnыe resursы//Dengi i kredit. – Moskva, 2013. – №5. – S. 19.; Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. – M.: IKS “DIS”, 1997. – S. 194.; Afanasyeva O.N. Sostoyaniye rынka proyektnogo finansirovaniya i faktorы, sderjivayuщiye yego razvitiya//Dengi i kredit. – Moskva, 2014. – №2. – S. 37.; Usoskin V.M. Sovremennыy kommercheskiy bank. – Moskva: Vazar-Ferro, 1994. – S. 218-276.; Mirkin Ya.M. Bank operatsiyalari: O‘quv qo‘llanma. /Ya.M.Mirkin. – M: INFRA-M, 1996.-6-bet.

[6]Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. avtoreferati. –T. 2000. -46 b.; Bobakulov T.I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. I.f.d. diss. avtoref. –T. 2008.-45 b.; Xolmamatov F.K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining barqarorligini oshirish yo‘llari. I.f.d. diss. avtoref. – T. 2023. – 76 b.; Isakov J.Ya. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. avtoref. – T. 2017. – 66 b.; Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari. Dis. i.f.d. – T. 2019.; Tuxtabayev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. I.f.n. diss. avtoref. T, 2006.; Maqsudov B.A. Tijorat banklarining muammoli aktivlarini qisqartirish yo‘llari. avtoreferat. – T. 2023. 56 b.; Sharipova D.J. Bank aktivlari samaradoriligi oshirishning nazariy jihatlari. // “Fundamental tadqiqotlar” jurnali, №2. 2024. 283-290 b.

Tadqiqotning predmeti - tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, ilmiy tafakkur, iqtisodiy-statistik, empirik baholash, korrelyatsion-regression tahlil, bashoratlash tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bank aktivlari samaradorligini oshirishda kredit riskini boshqarish bo‘yicha stress-ssenariyning omili sifatida kredit portfelining o‘sishi 2 foiz bo‘lganda “barqaror ssenariy”, 3 foiz bo‘lganda “stressli ssenariy” va 4 foiz bo‘lganda “inqirozli ssenariy” deb tasniflash taklif etilgan;

bank aktivlari sifatini oshirishda kredit ta’minoti sifatida kotirovka qilinadigan aksiyalar taqdim etilganda kredit muddati 18 oygacha bo‘lganda aksiyaning birja bozoridagi narxining 80 foizigacha, 18 oydan 60 oygacha bo‘lganda 70 foiz va 60 oydan oshganda 60 foiz etib belgilash taklif etilgan;

banklarda kredit va unga to‘lanadigan foizlar to‘lovini surunkali ravishda muddatini o‘tkazish holatlariga yo‘l qo‘yayotgan, biznes reja ko‘rsatkichlarini 60 foizdan kam bajarayotgan hamda kredit shartlarini muddatida bajarmagan yuridik shaxslar bo‘yicha har chorakda bir marta joyiga chiqqan holda monitoring o‘tkazish taklif etilgan;

bank investitsiyalari samaradorligini ta’minlashda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning maksimal darajasi 45 foizdan yuqori bo‘lganda “yuqori risk”, 45-40,5 foiz bo‘lganda “o‘rtacha risk”, 40,5 foizdan kam bo‘lganda “past risk” etib belgilash va chegara qiymatini minimal 45 foiz bo‘lishini ta’minlash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

bankda kredit portfelini samaradorligini oshirishda valyuta turidan qat’iy nazar kreditning ta’minlanganlik darajasi 125 foiz, bankka aloqador shaxslarning kreditlari bo‘yicha 130 foizdan kamayib ketgan taqdirda, kredit ta’minotiga qo‘shimcha ta’minot olish taklifi amaliyotda foydalanilgan;

investitsion loyihalar samaradorligini oshirishda investitsion loyihani moliyalashtirishda dastlabki mulk ta’minoti ajratilayotgan kredit summasining 65 foizidan kam bo‘lmasligi, kreditning qolgan qismi uchun 60 foiz miqdorida kredit hisobiga sotib olinadigan asosiy vositalar garovi taqdim etilishi lozimligi taklifi amaliyotda qo‘llanilgan;

banklarda jismoniy shaxslarning kredit portfeli bo‘yicha risk darajasini baholashda jami aktivlardagi kredit portfeli summasi ko‘rsatkichi 10 foiz, kredit portfelining o‘sish sur’ati ko‘rsatkichi 20 foiz, muammoli kreditlarning jami kreditlarga nisbati 30 foiz, kredit zaxiralarining yetarliligi 10 foiz va shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlarning jami kreditlarga nisbati ko‘rsatkichi 20 foiz etib belgilash taklifi amaliyotga joriy etilgan;

banklarda kredit portfelini samarali tashkil etish va uni boshqarishda, mijozlarga alohida yondashilgan kredit xizmatlarini taqdim etishda risk bo‘yicha ishlab chiqilgan ssenariylari amaliyotda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi banklarning aktivlari samaradorligini oshirish, stress-test o‘tkazish orqali banklarda risklarni pasaytirish natijasida aktivlarning rentabellik ko‘rsatkichlarini yanada oshirish va barqaror bo‘lishini ta’minlash hamda bu bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish O‘zbekiston Respublika Markaziy banki statistik ma’lumotlari, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari va tasdiqlangan rasmiy statistik ma’lumotlar, xalqaro ilmiy maktablar, aktivlar samaradorligini baholashda

foydalaniladigan iqtisodiy-statistik usullar hamda xalqaro rasmiy statistik to‘plamlardan olingani, shuningdek, tadqiqotning ilmiy taklif va amaliy natijalarining pirovard xulosalari mutasaddi tashkilotlar (tijorat banklari) tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosa va takliflardan kelajakda bank aktivlari samaradorligini baholashga O‘zbekiston Respublikasida me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, bank aktivlari rentabelligini oshirish va ularni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan va ilmiy tomondan asoslangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida uni qo‘llash imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan tavsiyalardan banklarning aktivlar portfelini optimallashtirishda, banklarning kredit va investitsiya siyosatini ishlab chiqishda, banklarda foydalaniladigan risk-menejment tizimi elementlarini takomillashtirishda va moliyaviy barqarorligini oshirishda, shuningdek, Oliy ta’lim muassasalarida bank faoliyatiga doir fanlarni o‘qitishda foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarining aktivlarini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

bank aktivlari samaradorligini oshirishda kredit riskini boshqarish bo‘yicha stress-ssenariyning omili sifatida kredit portfelining o‘sishi 2 foiz bo‘lganda “barqaror ssenariy”, 3 foiz bo‘lganda “stressli ssenariy” va 4 foiz bo‘lganda “inqirozli ssenariy” deb tasniflash taklifi “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 25-martdagi 63-sonli “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida stress-test o‘tkazish siyosati”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (“Biznesni rivojlantirish banki” ATB 2026-yil 6-yanvardagi 36-09/50-sonli ma’lumotnomasi). Buning natijasida, bankning ssenariylar bo‘yicha stress-test o‘tkaziladigan risklar ro‘yxati hamda asosiy risk omillari va taxminlarining ro‘yxati aniqlashtirilgan. Shuningdek, 2025-yilning 9 oyi yakunlariga ko‘ra, bank o‘tgan yilgi zarardan so‘ng, 387 mlrd. so‘m sof foydaga chiqishga erishgan va muammoli kreditlar ulushi deyarli ikki barobarga qisqartirilib, 6 foizdan past darajaga tushgan;

bank aktivlari sifatini oshirishda kredit ta’minoti sifatida kotirovka qilinadigan aksiyalar taqdim etilganda kredit muddati 18 oygacha bo‘lganda aksiyaning birja bozoridagi narxining 80 foizigacha, 18 oydan 60 oygacha bo‘lganda 70 foiz va 60 oydan oshganda 60 foiz etib belgilash belgilash taklifi “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash tartibi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (“Biznesni rivojlantirish banki” ATB 2026-yil 6-yanvardagi 36-09/50-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bankning 2024-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 83,4 foizni tashkil qilgan va bunda investitsiyalar hajmi 493,3 mlrd. so‘mga yetgan;

banklarda kredit va unga to‘lanadigan foizlar to‘lovini surunkali ravishda muddatini o‘tkazish holatlariga yo‘l qo‘yayotgan, biznes reja ko‘rsatkichlarini 60 foizdan kam bajarayotgan hamda kredit shartlarini muddatida bajarmagan yuridik shaxslar bo‘yicha har chorakda bir marta joyiga chiqqan holda monitoring o‘tkazish taklifi “Biznesni

rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashining 2023-yil 19-dekabrdagi 73-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo‘yicha monitoring o‘tkazish tartibi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (“Biznesni rivojlantirish banki” ATB 2026-yil 6-yanvardagi 36-09/50-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, 2024-yilda bankning aktivlari 32 133,4 mlrd.. so‘mni tashkil etgan va yil boshiga nisbatan 18,7% ga o‘sgan hamda kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha foizli daromadlar 10,1 foizga oshib, 2974,3 mlrd.. so‘mni tashkil etgan;

bank investitsiyalari samaradorligini ta’minlashda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning maksimal darajasi 45 foizdan yuqori bo‘lganda “yuqori risk”, 45-40,5 foiz bo‘lganda “o‘rtacha risk”, 40,5 foizdan kam bo‘lganda “past risk” etib belgilash va chegara qiymatini minimal 45 foiz bo‘lishini ta’minlash taklifi “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashining 2024-yil 27-martdagi 7-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Risk appetiti va risk profili siyosati”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (“Biznesni rivojlantirish banki” ATB 2026 yil 6-yanvardagi 36-09/50-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, 2024-yilda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar 26,9 foizga oshgan va jami 1823,57 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tijorat banklari aktivlari samaradorligi xususidagi ilmiy nazariy qarashlar va xorij tajribasi”** deb nomlangan birinchi bobida tijorat banki aktivlari samaradorligining iqtisodiy mazmuni hamda nazariy asoslari, tijorat banklarida aktivlar samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning qiyosiy tavsifi va tijorat banki aktivlari samaradorligining xorij amaliyoti va taqqoslama tahlili tadqiq qilinib, tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Bank aktivlari bank faoliyatida, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda hamda boshqaruv sifatiga baho berishda birlamchi ko‘rsatkich sanalganligi sababli har doim ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

1-jadval.

Tijorat banklari aktivlari samaradorligi bo‘yicha fikr-mulohazalar[7]

Muallif(lar)	Asosiy ilmiy xulosa	Izoh	O‘zbekiston bank amaliyotiga taalluqliligi
F. Mishkin	Bank aktivlari samaradorligi – maksimal foyda emas, balki risk, likvidlik va diversifikatsiyani hisobga olgan holda barqaror daromadga erishishdir; aktivlar sifatsizligi moliyaviy inqirozga olib keladi; kredit portfeli diversifikatsiyasi muhim.	Xulosalar asosli, chunki aksariyat banklar aktivlari tarkibida kreditlar eng katta ulushni egallaydi.	2026-yil boshiga bank tizimi aktivlarining 63,5 foizi kreditlarga to‘g‘ri keladi.
Allen N. Berger	Bank samaradorligi aktivlarni boshqarish sifatiga bog‘liq; cost and profit efficiency va texnik samaradorlikni qo‘llash maqsadga muvofiq; aktivlar tarkibi va model tanlovi natijalarga ta’sir qiladi.	To‘liq qo‘shilolmaymiz, chunki kichik banklarning ROA ko‘rsatkichlari yirik banklarga nisbatan ancha yaxshiroq.	yirik banklarda ROA: TIF Milliy bank 1,7%, AT Agrobank 0,25%, AT Xalq banki 0,60%, kichik banklarda: Universalbank 7,31%, Davrbank 6,1%,
L.M. Seiford, J. Zhu	Bank aktivlari samaradorligi – resurslarni aktivlarga va aktivlarni daromadga aylantirish jarayonining umumiy samaradorligi; DEA usulini qo‘llashni taklif qiladi.	Eng katta yutug‘i – DEA usulini rivojlantirib, bank faoliyatiga qo‘llash yo‘nalishlarini ochib bergan va keng ommalashtirgan.	DEA asosida O‘zbekiston banklari samaradorligini ko‘p omilli tahlil qilish imkoniyati mavjud.
John P. Bonin	Bank aktivlari samaradorligi boshqaruvga, mulkchilik shakli va institutsional muhitga bog‘liq; davlat banklari pastroq, xususiy banklar yuqoriroq, xorijiy banklar eng samarali.	Tadqiqotlar va xulosalar mamlakatimiz bank amaliyoti uchun juda muhim, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun.	O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakat bo‘lgani uchun mulkchilik shakli omili dolzarb ahamiyatga ega.
A. Micco, U. Panizza	Bank aktivlari samaradorligi va kredit siyosati bank mulkchiligiga bog‘liq; davlat banklari barqarorlikni, xususiy banklar samaradorlikni oshiradi; inqirozlarda davlat banklari kredit berishni barqaror saqlaydi.	Banklarni mulkchilik shakliga ko‘ra tadqiq etish mamlakatimiz bank amaliyoti uchun muhim.	Kredit yetishuvi, investitsiya darajasi va iqtisodiy barqarorlikka ta’siri tufayli O‘zbekiston uchun ahamiyatli.
M.A. Gulamhussen, C.M. Pinheiro, A.F. Pozzolo	Tijorat banklari aktivlarini boshqarish samaradorligini ta’minlashda risklarning optimal darajasini ta’minlash zaruriy shart.	“Optimal risk darajasi” aniqligi bo‘yicha kamchilik mavjud; har bir bankning risk appetiti moliyaviy holat va imkoniyatlardan kelib chiqib farqlanadi.	O‘zbekiston banklari uchun risk darajasini milliy sharoit va bank xususiyatidan kelib chiqib belgilash lozim.
O.I. Lavrushin	Bank aktivlari – o‘z va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan vujudga kelgan, aktiv operatsiyalarda foydalaniladigan mulklar va huquqlar yig‘indisi.	Bank aktivlarini shakllantirishda ko‘proq resurslar jihatidan yondashilgan va jami aktivlar natija sifatida ko‘rsatilgan.	Resurslar bazasi va aktiv operatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritadi, O‘zbekiston sharoitida ham aktual.
L. Dudines	Muammoli bank aktivlari – qaytishiga shubha tug‘diradigan yoki ularni joylashtirishdan iqtisodiy foyda olmaslik ehtimoli yuqori bo‘lgan aktivlar.	Banklarning asosiy maqsadi daromad olishga qaratilgani uchun ushbu ta’rif asosli.	Muammoli aktivlar ulushini qisqartirish O‘zbekiston banklarida samaradorlikni oshirish uchun zarur.
T.I. Bobakulov	Banklar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning asosiy omili – bank aktiv va passivlari o‘rtasida muddati va hajmi bo‘yicha mutanosiblikni ta’minlash.	Muallif bank aktivlari samaradorligiga erishishda jalb qilingan mablag‘lar va joylashtirilgan aktivlarning mutanosib kelishini asosiy talab sifatida ta’kidlaydi.	Aktiv–passivlarni boshqarish tizimini kuchaytirish O‘zbekiston banklari uchun muhim.
B.Berdiyarov	Bank aktivlarining sifati – aktivlarning maqsadga muvofiq tuzilishi, likvidligi, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasi, risklilik darajasi, muammoli aktivlar salmog‘i va aktivlarning o‘zgaruvchanlik sifatlariga bog‘liq.	Bank aktivlari samaradorligining bank risklari, muammoli aktivlar ulushi va aktivlarning o‘zgaruvchanlik xususiyatlariga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.	Aktivlar sifatini kompleks ko‘rsatkichlar asosida baholash O‘zbekiston banklari uchun ahamiyatli.

[7] Muallif ishlanmasi

AQSHda banklarning samaradorligi va moliyaviy barqarorligini nazorat qilishda foydalaniladigan Uniform Bank Performance Report (UBPR) indikatorlari to‘plami mavjud bo‘lib, ular banklarning faoliyati samaradorligini boshqa tengdosh banklar bilan solishtirish (qiyoslash) orqali taqdim etiladi.

2-jadval.

Banklarning aktivlarini samaradorligini aniqlash va uni oshirish bo‘yicha Jahon banki ko‘rsatkichlari[8]

№	Ko‘rsatkich nomi	Formula	Izoh
1	Bank aktivlari rentabelligi (ROA)	$ROA = \frac{Net\ Profit}{Total\ Assets} \times 100\%$	Sof foydaning jami aktivlarga nisbati
2	Sof aktivlar rentabelligi (RONA)	$RONA = \frac{Net\ Profit}{Net\ Assets} \times 100\%$	Sof foydaning sof aktivlarga nisbati
3	Sof foiz marjasi (NIM)	$NIM = \frac{Interest\ Income - Interest\ Expense}{Earning\ Assets} \times 100\%$	Foizli daromad va foizli xarajat farqining daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati
4	Daromad keltiruvchi aktivlar daromadliligi (YoEA)	$YoEA = \frac{Interest\ Income}{Average\ Earning\ Assets} \times 100\%$	Foizli daromadning o‘rtacha daromad keltiruvchi aktivlarga nisbati
5	Muammoli kreditlar ulushi (NPL)	$NPL = \frac{Non\text{-}Performing\ Loans}{Total\ Gross\ Loans} \times 100\%$	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
6	Kredit zararlarini qoplash koeffitsiyenti (LLPR)	$LLPR = \frac{Loan\ Loss\ Provision}{Total\ Loans} \times 100\%$	Zaxiralarning umumiy kredit portfeliga nisbati
7	Aktivlardan foydalanish koeffitsiyenti (AUR)	$AUR = \frac{Total\ Revenue}{Total\ Assets} \times 100\%$	Umumiy daromadlarning umumiy aktivlarga nisbati
8	Kreditlarning aktivlarga nisbati (LAR)	$LAR = \frac{Total\ Loans}{Total\ Assets} \times 100\%$	Jami kredit portfelining umumiy aktivlarga nisbati
9	Kapitalning aktivlarga nisbati (CAR)	$CAR = \frac{Total\ Capital}{Total\ Assets} \times 100\%$	O‘z kapitalining umumiy aktivlarga nisbati
10	Likvid aktivlar nisbati (LAR)	$LAR = \frac{Liquid\ Assets}{Short\text{-}term\ Liabilities} \times 100\%$	Likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati
11	Xarajatlar samaradorligi ko‘rsatkichi (CIR)	$CIR = \frac{Operating\ Expenses}{Operating\ Income} \times 100\%$	Operatsion xarajatlarning operatsion daromadga nisbati
12	Operatsion samaradorlik koeffitsiyenti (OER)	$OER = \frac{Operating\ Expenses}{Operating\ Revenue} \times 100\%$	Operatsion xarajatlarning operatsion tushumga nisbati
13	Daromad diversifikatsiyasi koeffitsiyenti (IDR)	$IDR = \frac{Non\text{-}interest\ Income}{Total\ Income} \times 100\%$	Foizsiz daromadlarning jami daromaddagi ulushi
14	Jami daromadning aktivlarga nisbati (A1)	$A1 = \frac{Income}{Assets}$	Bankning barcha daromadlarining aktivlarga nisbati
15	Zaxiralarning aktivlarga nisbati (A2)	$A2 = \frac{Pos\ Risk\ Assets}{Assets} \times 100\%$	Ehtimoliy yo‘qotishlar uchun shakllantirilgan zaxiralarning aktivlarga nisbati
16	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi (A3)	$A3 = \frac{NPL}{Credit} \times 100\%$	Muammoli kreditlarning jami kreditlarga nisbati

[8] Xalqaro standartlar asosida muallif ishlanmasi


Ushbu tahliliy hisobotda bank aktivlari sifati, bankning likvidlilik holati, bank kapitalining yetarliligi (o‘rnatilgan me’yorlarga mos kelishi), bank daromadlari tahlil qilinadi. UBPR quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lib, aktivlar samaradorligini oshirish strategiyalarini holatiga baho beradi va doimiy ravishda solishtirib boradi:

1. Bankning umumiy tahlili (Summary Analysis). Bunda bankning aktivlar samaradorligi (ROA), bank kapitali samaradorligi (ROE), bankning sof foizli marjasi (NIM) bo‘yicha asosiy trendlar aks etadi.

2. Bank aktivlari va passivlari tarkibi va strukturasi (Composition of Assets and Liabilities). Bu blokda bank aktivlarining tarkibi va joylashishi, ulardagi o‘zgarishlar, aktivlarning qayta tasniflanishi o‘z aksini topadi.

3. Aktivlar sifati (Asset Quality). Mazkur blokda bank aktivlarining joriy holati tahlil qilinadi, muammoli kreditlarning hajmi va turlari, muddati o‘tgan qarzdorlikning muddatlari bo‘yicha tahlili, kechiktirilgan to‘lovlar, ularning harakati hamda ular uchun yaratilgan zaxiralar tahlil qilinadi.

4. Likvidlilik va investitsion jozibadorlik (Liquidity and Investment Portfolio). Bu blokda banklarning likvidlilik holatlari va ularning o‘zgarishi (qisqa muddatli likvidlilik, joriy likvidlilik, oniy likvidlilik va boshqalar), salbiy holatlar yuzaga kelganda banklar qanday javob bera olishi, qisqa muddatli shoklarga chidamlilik darajasi va risklarga ta’sirchanligi tahlil qilinadi.



1- rasm. AQSHning banklari ROA ko‘rsatkichi dinamikasi[9] (%)

AQSHning eng yirik tijorat banklari aktivlar rentabelligi tendensiyasini ko‘radigan bo‘lsak, 2020-yilda pasayish kuzatilgan bo‘lib, buning asosiy sababi pandemiya sharoitida banklar ehtimoliy yo‘qotishlar uchun zaxiralar tashkil etdi. Natijada, bankning aktivlar rentabelligining tushib ketishiga sabab bo‘ldi. 2021-yilda aktivlar rentabellik ko‘rsatkichlari so‘nggi davrdagi eng yuqori natijani qayd

[9] FDIC (Federal Deposit Insurance Corporation) hisobotlari va Bank Annual 10-K Reports ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

etdi va bu iqtisodiyotning tiklanishi orqali “sakrash”ni qayd etdi. 2022-2023-yillarda esa vaziyat ancha barqarorlashdi, Federal Zaxira tizimi stavkalarni oshirishi hisobiga banklarning jami daromadlari oshdi, lekin aktivlar sifatiga bo‘lgan bosim 0,8-1,2 foiz atrofida saqlanib qoldi.

3-jadval.

JP Morgan bankining samaradorlik ko‘rsatkichlari[10], foizda

Ko‘rsatkich	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
ROA (Return on Assets)	0,89	1,48	1,05	1,31	1,38
RONA (Return on Net Assets)	1,34	2,15	1,54	1,88	1,95
NIM (Net Interest Margin)	1,98	1,64	2,16	2,65	2,60
YoEA (Yield on Earning Assets)	2,35	1,95	3,20	5,25	5,40
NPL (Non-Performing Loans)	0,81	0,65	0,58	0,62	0,60
LLPR (Loan Loss Prov. Ratio)	1,15	0,65	0,52	0,65	0,55
AUR (Asset Utilization Ratio)	3,45	3,52	3,65	4,35	4,45
LAR (Loans to Assets Ratio)	29,80	28,50	31,00	34,50	35,20
CAR (Capital Adequacy Ratio)	13,10	13,00	13,20	15,00	15,30
CIR / OER (Cost-to-Income)	58,00	59,00	62,00	54,00	52,00
Inc. Div. Ratio (IDR)	54,20	57,80	48,50	44,10	45,50

AQSHning eng yirik banki bo‘lgan JP Morgan bankining samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, aktivlar rentabelligi so‘nggi besh yilda 0,89 foizdan 1,38 foizga qadar. Samaradorlik ko‘rsatkichlari ichida aktivlaridan foydalanish samaradorligi AUR (Asset Utilization Ratio) 2023-yildan boshlab keskin o‘sishni qayd etgan (+0,7 foiz band) va 2024-yilga kelib 4,45 foizga yetgan. Shuningdek, YoEA (Yield on Earning Assets) darajasining 2,3-martaga oshishi kuzatilgan bo‘lib, uning asosiy omili AQSH FZT tomonidan foiz siyosatini qayta ko‘rib chiqqanligi va foiz stavkalarini oshirilishi hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi aktivlari samaradorligining iqtisodiy va statistik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi aktivlari samaradorligining joriy holati va dinamikasi, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda zaxiralar amaliyotidan samarali foydalanishning amaliy jihatlari va bank aktivlari sifatiga ta’sir etuvchi ekonometrik model tahlil qilingan.

Oxirgi yillarda Markaziy bank mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta’minlashga, barqaror o‘sishni rag‘batlantirishga va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni imkon qadar pasaytirishga hamda banklarning bardoshliligini oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bunda xalqaro moliya tashkilotlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi) bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirib, ular ko‘magida turli dasturlar (Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP)) bo‘yicha faol ishlar amalga oshirilmoqda.

[10] JPMorgan Chase & Co. yil yakunlari bo‘yicha rasmiy hisobotlari (Form 10-K, 2020-2024) va FDIC (Federal Deposit Insurance Corporation) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

4-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi moliyaviy natijalari (yil boshiga nisbatan)[11], mlrd.. so‘m

Ko‘rsatkichlar	**2022-y.**	**2023-y.**	**2024-y.**	**2025-y.**	**2026-y.**
Foizli daromadlar	47 392	61 728	86 679	111 866	127 702
Foizli xarajatlar	30 796	37 566	57 683	77 675	89 703
Foizli marja	**16 595**	**24 162**	**28 996**	**34 192**	**38 000**
Foizsiz daromadlar	17 251	33 182	42 054	55 120	73 104
Foizsiz xarajatlar	4 944	11 812	13 273	22 619	27 842
Operatsion xarajatlar	10 998	14 877	19 563	23 715	30 250
Foizsiz daromad (zarar)	**1 309**	**6 494**	**9 218**	**8 785**	**15 012**
Kredit va lizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	12 221	13 863	18 413	25 939	22 917
Boshqa aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	333	4 213	4 645	7 383	11 710
Soliq to‘langunga qadar sof foyda (zarar)	5 351	12 579	15 155	9 655	18 385
Foyda solig‘ini to‘lash xarajatlari	1 465	2 587	2 775	2 690	2 883
Foyda bo‘yicha tuzatishlar	0,0	1,2	0,0	1,4	0,0
Sof foyda (zarar)	**3 885**	**9 993**	**12 380**	**6 966**	**15 502**

Bank tizimi moliyaviy natijalari bo‘yicha umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, 2022-2026-yillarda banklarning moliyaviy natijalarida ijobiy holat kuzatilgan, banklarning foizli va foizsiz xarajatlarining o‘sishi bank aktivlari samaradorligini o‘sganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, banklarda foizli xarajatlar va operatsion xarajatlarning o‘sishi ehtimoliy yo‘qotishlar uchun zaxiralarning ortishi va kredit riski yuqori ekanligidan dalolat bersa, 2025-yilda sof foydaning keskin kamayishiga ushbu omillar bevosita ta’sir qilganligi aniqlandi.

5-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi aktivlari samaradorlik ko‘rsatkichlari[12], foizda

Samaradorlik ko‘rsatkichlari	**2022-y.**	**2023-y.**	**2024-y.**	**2025-y.**	**2026-y.**
Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	1,3	2,5	2,6	1,4	2,2
Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	6,1	13,3	14,2	6,6	12,4
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	3,7	4,3	4,4	4,4	4,1
Kreditlar bo‘yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo‘yilmalariga nisbati	5,1	6,2	6,2	6,4	6,3
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	4,4	5,1	5,2	5,2	4,8
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,2	4,9	4,9	4,9	4,5

Bank tizimi aktivlari samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, aktivlar samaradorligi deyarli barcha davrda oshgan (faqat 2025-yilda 1,2 foiz

[11] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-2026 yil ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari
[12] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-2026 yil ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

bandga pasaygan) va ROA ko‘rsatkichining 2 foiz atrofida bo‘lishi bank faoliyati samaradorligi qoniqarli ekanligini ko‘rsatadi. 2022-2026-yillarda bank faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari ijobiy dinamikani qayd etgan bo‘lib, ROA va ROE ko‘rsatkichlarining o‘sishi bank aktivlari va kapitalidan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligi, 2025-yilda barcha asosiy ko‘rsatkichlarning pasayishi banklarda xarajatlarning ortishi va risklarning yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, sof foizli marja va kreditlardan ko‘rilayotgan daromadlar barqaror bo‘lsada, 2026-yilda resurslarning qimmatlashishi natijasida qisman pasayish kuzatilgan.

6-jadval.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar strukturasi va ularning o‘zgarish tendensiyalari[13], mln so‘m

Ko‘rsatkichlar	2022 y.		2023 y.		2024 y.	
	mln so‘m	foiz	mln so‘m	foiz	mln so‘m	foiz
jami muammoli kreditlar	**13992397,68**	**100,00**	**16621395,44**	**100,00**	**21185097,69**	100,00
qoniqarsiz	4799026,99	34,30	7082653,00	42,61	9994129,97	47,18
shubhali	5009781,59	35,80	5291283,52	31,83	7362077,15	34,75
umidsiz	4183589,10	29,90	4247458,93	25,55	3828890,57	18,07

Umuman olganda, bank kredit portfelida risklar darajasi juda yuqori, bank kredit sifati pasaygan va ularni boshqarishda ma’lum muammolar borligi hamda risk-menejment tizimini takomillashtirish zarur ekanligi aniqlandi.

7-jadval.

Bank tizimi aktivlari sifati va foydalilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari[14]

Asosiy ko‘rsatkichlar	01.01.21	01.01.22	01.01.23	01.01.24	01.01.25
Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar/jami kapital	**3,60%**	**12,95%**	**9,38%**	**10,83%**	**10,07%**
Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar miqdori	2098248	9186157	7466769	10515466	11556686
Jami kapital	58351262	70917598	79565429	97079158	114792404
Harakatsiz kreditlar/jami kreditlar miqdori	**2,09%**	**5,20%**	**3,59%**	**3,53%**	**3,97%**
Harakatsiz kreditlar	5784828	16974028	13992398	16621395	21185098
Jami kreditlar miqdori	276974809	326385581	390048945	471405511	533121200
Aktivlar rentabelligi	**2,20%**	**1,35%**	**2,54%**	**2,55%**	**1,37%**
Soliq to‘langunga qadar sof foyda	6960629	5350637	12579482	15155209	9654972
Jami aktivlar (mazkur davr uchun o‘rtacha)	315773136	397406799	496187383	593184727	703257856

[13] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-2024 yil ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari
[14] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-2025 yil ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Umumiy xulosa shakllantiradigan bo‘lsak, mazkur davrda bank aktivlari va kreditlari hajmi barqaror o‘sishni qayd etgan, harakatsiz kreditlar hajmi ham mos ravishda oshib borgan, bank tizimi foydasi ko‘rsatkichi 2025-yilda pasayish tendensiyasini qayd etgan.

Fikrimizcha, holatni barqarorlashtirish uchun banklarda risklarni baholash tizimini yanada takomillashtirish, muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmini qayta ko‘rib chiqish, kapital monandlik darajasi nazoratini qat’iylashtirish va foydani oshirish maqsadida bank xarajatlarini optimallashtirish zarur.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan Biznesni rivojlantirish bankining 2021-2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, zaxiralar chegirilgan holatdagi harakatsiz aktivlarning jami kapitalga nisbati juda beqaror bo‘lib, 2021-2024-yillarda keskin oshib borish holatini ko‘rsatgan va 2024-yilda eng yuqori bo‘lib, 58,20 foizni tashkil etgan. Bu holat bank kapitalining juda katta qismi risk ostida qolganligini ifodalaydi va bankka nisbatan salbiy fikrlarni shakllantiradi. 2025-yilda esa keskin pasayish holati qayd etilganligini ijobiy baholash mumkin va buni bank kapitali oshganligi hamda muammoli kreditlarning kamayganligi (yoki balansdan tashqariga olinganligi) bilan asoslash mumkin.

8-jadval.

Biznesni rivojlantirish banki aktivlari sifati va foydalilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari[15], mln so‘m

Asosiy ko‘rsatkichlar	01.01.21	01.01.22	01.01.23	01.01.24	01.01.25
Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar/jami kapital	**5,72%**	**26,96%**	**25,28%**	**58,20%**	**15,52%**
Zaxiralar chegirilgan holda harakatsiz kreditlar miqdori	137996,8	727083,9	744179,4	1850762,8	666512,1
Jami kapital	2413947,0	2696438,2	2943777,1	3180236,7	4295451,3
Harakatsiz kreditlar/jami kreditlar miqdori	**1,52%**	**4,28%**	**3,89%**	**8,88%**	**8,50%**
Harakatsiz kreditlar	209968,0	749380,9	789806,4	1935364,0	1915189,8
Jami kreditlar miqdori	13823137,6	17496148,6	20291871,2	21800615,6	22526630,8
Aktivlar rentabelligi	**2,01%**	**2,18%**	**2,34%**	**1,08%**	**-7,45%**
Soliq to‘langunga qadar sof foyda	283493,6	388629,6	531484,6	277716,6	-2231102,2
Jami aktivlar (mazkur davr uchun o‘rtacha)	14101431,4	17802495,6	22694885,3	25617557,8	29946754,6

2021-2023-yillarda bank faoliyati barqaror bo‘lib, 2024-yilda risklar darajasi oshgan, 2025-yilda yuqori darajadagi NPL, katta moliyaviy zarar natijasida salbiy

[15] Biznesni rivojlantirish bankining 2021-2025 yil ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

rentabellik ko‘rsatkichlari kuzatilgan bo‘lib, buning asosiy sababi bank kredit siyosatidagi kamchiliklar, risklarni boshqarish tizimidagi muammolar va tashqi iqtisodiy ta’sirni keltirish mumkin.

Fikrimizcha, bank zudlik bilan kredit-skoring tizimini va risklarni boshqarish siyosatini o‘zgartirishi kerak, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilishi va kredit portfelining sifatini oshirishi lozim hamda bank zaxiralar siyosatini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

9-jadval.

Biznesni rivojlantirish banki aktivlarining so‘ndirish muddati bo‘yicha tarkibi[16], foizda

Aktivlar	**2022**	**2023**	**2024**
muddatsiz	7,81	14,15	14,12
1-7 kunlik aktivlar	1,24	0,23	1,90
8-30 kunlik aktivlar	3,21	2,65	1,97
31-90 kunlik aktivlar	6,29	4,50	4,53
91-180 kunlik aktivlar	5,56	6,31	4,37
181-365 kunlik aktivlar	9,55	8,73	8,32
366-730 kunlik aktivlar	12,19	9,56	10,08
2 yildan ortiq aktivlar	54,15	53,87	54,72
Jami	100,00	100,00	100,00

Jadval ma’lumotlaridan xulosa qiladigan bo‘lsak, Biznesni rivojlantirish banki aktivlari tarkibida uzoq muddatli aktivlarning ulushi barqaror va bu holat bankning foizli daromadlarini oshirishga olib kelmoqda. Shuningdek, bankning aktivlarida likvid aktivlar ulushining nisbatan pastligi bank resurslarining asosiy qismini uzoq muddatli aktivlarga joylashtirganligidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida, bankning likvidlik riski darajasini yuzaga keltiradi va kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarga duch kelish xavfini oshiradi.

Bank aktivlari samaradorligini oshirishda tashkil etiladigan zaxiralar nafaqat bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi, balki bankning rentabellik ko‘rsatkichlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi eng asosiy omil hisoblanadi. Banklar faoliyati davomida olingan daromadlardan ehtimoliy yo‘qotishlar uchun tegishli zaxiralar shakllantiradi va aktivlarda muammolar bo‘lganda bankning keyingi faoliyatiga salbiy ta’sir etmasligi uchun undan foydalanadi.

Xalqaro amaliyotda kutilayotgan ehtimoliy zarar (ECL) uchta asosiy komponent natijasida shakllanadi, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$ECL=PD\times LGD\times EAD \qquad (1)$$

Bunda:
PD (Probability of Default) – defolt ehtimoli;
LGD (Loss Given Default) – defolt bo‘lgandagi zarar ulushi;
EAD (Exposure at Default) – defolt paytidagi qarz miqdori.

[16] Biznesni rivojlantirish bankining 2022-2024 yil ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

10-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi aktivlari sifati bo‘yicha yaratilgan maxsus zaxiralar tarkibi[17]

Aktivlar sifati	2022		2023		2024	
	mln so‘m	foiz	mln so‘m	foiz	mln so‘m	foiz
Standart	3 816 465	21,30	4 567 992	20,47	5 162 907	17,40
Substandart	5 158 799	28,79	8 100 796	36,30	9 855 566	33,21
Qoniqarsiz	1 154 797	6,44	1 377 974	6,17	2 906 996	9,80
Shubhali	2 330 436	13,00	2 574 768	11,54	4 330 006	14,59
Umidsiz	5 460 225	30,47	5 695 528	25,52	7 421 681	25,01
Jami	**17 920 721**	**100,00**	**22 317 059**	**100,00**	**29 677 157**	**100,00**

Respublika tijorat banklarida aktivlarning sifati bo‘yicha yaratilgan zaxiralar summasi oxirgi uch yillik davrda 17,9 trln. so‘mdan 29,7 trln. so‘mga (+11,8 trln. so‘m) qadar oshgan. Mazkur holat bir tomondan, bank aktivlari samaradorligi pasayganligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan bank kredit portfelining o‘sganligini ham bildiradi. Tashkil etilgan zaxiralar tarkibida 2022-yilda umidsiz toifadagi kreditlar yetakchilik qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda substandart kreditlarning ulushi 30 foizdan oshganligini ko‘rish mumkin. 2024-yilga kelib keskin o‘zgarishlar ro‘y bermagan bo‘lsa-da, standart kreditlarning ulushi 3,9 foiz bandga pasayib, 17,4 foizga qadar tushgan. Mazkur holat bank aktivlari sifatida salbiy o‘zgarishlar ro‘y berganligini anglatadi.

Substandart kreditlarning ulushi 28,79 foizdan 33,21 foizga qadar oshganligi kelajakda muammoli kreditlarning hajmi oshishi bilan izohlanadi. Chunki keyingi uchta toifa aktivlar qonunchilikka asosan muammoli aktivlar deb qaraladi.

11-jadval.

Biznesni rivojlantirish bankida aktivlar sifati bo‘yicha yaratilgan maxsus zaxiralar tarkibi[18]

Aktivlar sifati	2022		2023		2024	
	mln so‘m	foiz	mln so‘m	foiz	mln so‘m	foiz
Standart	182993	64,40	205117	61,63	238915	14,50
Substandart	50793	17,88	30339	9,12	108332	6,57
Qoniqarsiz	7546	2,66	12267	3,69	20840	1,26
Shubhali	16238	5,71	30917	9,29	378162	22,95
Umidsiz	26564	9,35	54158	16,27	901475	54,71
Jami	**284134**	**100,00**	**332798**	**100,00**	**1647723**	**100,00**

Biznesni rivojlantirish bankida aktivlar bo‘yicha tashkil etilgan zaxiralar harakatini tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘nggi uch yilda 5,8 martaga yoki 284,1 mlrd. so‘mdan 1647,7 mlrd. so‘mga qadar oshgan. Mazkur holat bankda aktivlar samaradorligi tushib ketganligidan, risklar darajasi keskin oshib ketganligidan va sifati pasayganligidan dalolat beradi.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022-2024 yil hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

[18] Biznesni rivojlantirish bankining 2022-2024 yil hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Aktivlar sifati bo‘yicha tuzilmani tahlil qiladigan bo‘lsak, standart kreditlarning ulushi keskin kamaygan, 2022-yilda 64,4 foizdan 2024-yilga kelib 14,5 foiz (-49,9 foiz band)ni tashkil etgan. Shuningdek, substandart aktivlarning harakati ham ijobiy emas, chunki mazkur davrda 17,88 foizdan 6,57 foizga qadar pasaygan. Qoniqarsiz aktivlarning ulushi 2,66 foizdan 1,26 foizga tushgan bo‘lsada, buni ijobiy holat deb qarab bo‘lmaydi, sabab, mazkur toifa aktivlarning pasayishi shubhali aktivlarning ulushini ortishiga olib kelgan. O‘z navbatida, shubhali aktivlar keskin oshib ketgan va 5,71 foizdan 22,95 foizgacha yetgan. Sifati bo‘yicha eng yomon aktivlar hisoblangan umidsiz toifadagi aktivlarning ulushi esa 9,35 foizdan 54,71 foizga qadar oshgan. Mazkur holat bank kredit portfelida va uning monitoringida jiddiy muammolar borligini anglatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida tijorat banklarining aktivlar sifati bilan bog‘liq muammolarni chuqur o‘rganish maqsadida qurilgan ekonometrik model kredit riskini shakllantiruvchi asosiy ichki omillarni aniqlab beradi. Modelda bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida muammoli kreditlar hajmining tabiiy logarifmi (lnNPL) tanlangan bo‘lib, bu kredit portfelining umumiy sifatini ifodalashda eng keng tarqalgan ko‘rsatkichdir. Mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida bankning likvidlik darajasi, operatsion samaradorlik (CIR), kreditlar o‘sish tezligi, rentabellik ko‘rsatkichlari (ROA/ROE) va kapital yetarliligi (CAR) kiritilgan. Ushbu omillar banklarning moliyaviy barqarorligi va kredit riskiga moyilligini belgilab beruvchi global standartga aylangan prudensial indikatorlardir.

12-jadval.

Korrelyatsiya jadvali[19]

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)		(6)
(1) lnNPL	1.000						
(2) Current_liquidity	0.864	1.000					
(3) Cost_to_income	-0.300	-0.344	1.000				
(4) Credit_growth	-0.134	-0.202	0.168	1.000			
(5) EBIT	-0.074	0.178	-0.485	-0.193	1.000		
(6) Cap_Adequacy	-0.897	-0.782	0.261	0.056	-0.007		1.000

Korrelatsiya matritsasi o’zgaruvchilar o’rtasidagi asosiy bog’liqliklarni aniqlab, regressiya modelining to’g’ri spetsifikatsiyasini baholashga yordam beradi. Natijalar bank-spetsifik omillar va kredit riski o’rtasida iqtisodiy jihatdan kutiladigan va ilmiy adabiyot bilan mos keluvchi munosabatlarni ko’rsatmoqda.

Tahlil 49 ta kuzatuv asosida amalga oshirilgan bo‘lib, aniqlangan natijalar iqtisodiy mazmun jihatidan o‘zaro izchil, statistik asoslangan va xalqaro ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan eng kuchli empirik topilmalar bilan mos keladi.

[19] Muallif ishlanmasi

13-jadval.

Regressiya jadvali[20]

lnNPL	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Liquidity	.011	.002	5.79	0	.007	.015	***
Cost_to_income	-2.463	1.261	-1.95	.057	-5.007	.081	*
Credit_growth	-.018	.023	-0.76	.452	-.064	.029	
EBIT	-.358	.089	-4.02	0	-.538	-.178	***
Cap_Adeq,,	-.135	.02	-6.57	0	-.176	-.093	***
Constant	12.064	.572	21.08	0	10.91	13.218	***

Mean dependent var	9.371	SD dependent var	0.514
R-squared	0.908	Number of obs	49
F-test	84.537	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	-31.861	Bayesian crit. (BIC)	-20.511

*** *p<.01, ** p<.05, * p<.1*

Regressiya natijalari modelning ishonchliligi va uning izohlash qobiliyatining yuqoriligini aniq ko‘rsatadi. F-statistikaning 84.54 bo‘lishi va Prob > F qiymatining 0.000 chiqishi, modelda tanlangan omillar majmuasi muammoli kreditlar darajasiga statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini bildiradi. Bu holat Louzis, Vouldis va Metaxas (2012) tomonidan Gretsiya bank tizimi misolida, shuningdek Makri, Tsagkanos va Bellas (2014) tomonidan Yevrozona banklari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda qayd etilgan natijalar bilan mos keladi.

R-kvadratning 0.9077, mos ravishda Adjusted R-kvadratning 0.8969 bo‘lishi modeli iqtisodiy mazmun jihatdan ham juda barqaror ekanini ko‘rsatadi. Aksariyat empiric tadqiqotlarda (masalan, Chaibi & Ftiti, 2015; Ghosh, 2015) bank ichki o‘zgaruvchilaridan foydalangan regressiyalar odatda 0.7–0.85 atrofida R^2 beradi. Ushbu tadqiqotda R^2 ning 0.91 chiqishi model bank faoliyatidagi asosiy risk determinantlarini juda aniq tanlaganini bildiradi.

Breusch–Pagan / Cook–Weisberg testining $\chi^2 = 0.48$ va $p = 0.49$ ko‘rinishida chiqishi modeldagi xatoliklar dispersiyasi barqaror ekanini tasdiqlaydi. Ya’ni, modelda heteroskedastiklik mavjud emas degan nol gipoteza rad qilinmaydi. Bu natija xatoliklar variansining o‘zgaruvchilar qiymatlariga bog‘liq emasligini, model regressiya chizig‘i bo‘ylab barqaror xatolik dispersiyasiga ega ekanini bildiradi. Bu holat regressiya modelining ishonchliligini oshiradi va koeffitsientlarning standart xatoliklari to‘g‘ri baholanganini ko‘rsatadi. Xuddi shunday natija White testi orqali ham tasdiqlandi. White testining $\chi^2 = 27.43$ va $p = 0.39$ bo‘lib chiqishi heteroskedastiklikning mavjud emasligini yana bir bor ko‘rsatadi. Mazkur ikki mustaqil testi natijalarining mos kelishi modelning xatolik tuzilmasi ancha tartibli va klassik regressiya shartlariga mos ekanini anglatadi.

Modelning funksional shaklini tekshiruvchi Ramsey RESET testi $F = 19.96$ va $p = 0.00$ natijalarini ko‘rsatdi. Ushbu testning maqsadi modelda qayta kiritilishi kerak bo‘lgan nonlinear o‘zgaruvchilar yoki funksional shakl xatolari mavjudligini

[20] Muallif ishlanmasi

aniqlashdir. P-qiymatning 0.00 bo‘lishi nol gipotezaning - ya’ni “modelda funksional shakl xatosi yo‘q” degan qarashning rad etilishiga olib keladi. Bu modelning funksional shakli to‘liq chiziqli emasligini, ehtimoliy nonlinear munosabatlar yoki qo‘shimcha transformatsiyalar talab qilinishini anglatadi. Biroq bu holat iqtisodiy tahlilning mantiqiy izohlarini rad etmaydi. Ko‘plab bank indikatorlari (xususan, likvidlikning NPLga aks ta’siri yoki CIRning murakkab ta’siri) tabiatan nolinear bo‘lishi mumkin. Shuning uchun modelning ishlashi davomida log-transformatsiya qo‘llanganligi (lnNPL shakli) funksional shaklni muvozanatlashtiradi va natijalarni talqin qilishda jiddiy muammo tug‘dirmaydi. Ta’kidlash lozimki, RESET testi funksional shakl bo‘yicha juda sezgir bo‘lib, ko‘pincha yuqori izohlash qobiliyatiga ega modellarni ham signalga tushirishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan (Greene, 2018).

Model xatoliklarining avtokorrelyatsiyaga moyilligini tekshiruvchi Durbin-Watson ko‘rsatkichi DW = 1.98 bo‘lib, u ideal qiymat - 2 ga nihoyatda yaqin. Bu xatoliklar orasida avtokorrelyatsiya mavjud emasligini bildiradi. Avtokorrelyatsiyaning yo‘qligi modelning vaqt bo‘yicha barqaror ekanini, xatoliklarda ketma-ket bog‘liqliklar yuzaga kelmayotganini bildiradi. Bu esa modelning prognozlash salohiyatini oshiradi va iqtisodiy talqinlarning aniqligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, diagnostik testlar modelning ayrim statistik xususiyatlarini qoniqarli deb baholash imkonini beradi, biroq Ramsey RESET testi funksional shaklga oid muammolar mavjudligini ko‘rsatganligi sababli modelni to‘liq spetsifikatsiyalangan deb hisoblash mumkin emas. Xususan, heteroskedastiklikning yo‘qligi, xatoliklar avtokorrelyatsiyasining mavjud emasligi, xatoliklarning normal taqsimlanganligi modelning validligi va barqarorligini ko‘rsatadi. Shu sababli, mavjud modelning funksional shakli amaliy jihatdan to‘g‘ri tanlangan bo‘lib, iqtisodiy talqinlar ilmiy asosga tayangan holda ishonchli tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Banklarda aktivlar samaradorligini ta’minlashda stress-test o‘tkazish bu shunchaki vosita emas, balki to‘liq ishlovchi butun boshli mexanizm hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda stress-test o‘tkazishning keng tarqalgan uchta usuli mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Sensitiv tahlil. Ushbu tahlil bitta risk omiliga asoslangan tahlil bo‘lib, o‘sha omillarning o‘zgarishi bankning umumiy faoliyatiga qanday ta’sir qilishini baholash usulidir.

2. Ssenariylar tahlili. Mazkur tahlil bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning kompleks o‘zgarishi bankning moliyaviy holatiga qanchalik ta’sir qilishini aniqlaydigan usul hisoblanadi va bir nechta ssenariy ko‘rib chiqiladi.

3. Teskari stress-test. Mazkur tahlil usuli bankning moliyaviy barqarorligiga sezilarli darajada (ba’zan bankrotlik holatiga) ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillarning ta’sirini baholashga qaratilgan risklarni tahlil qilish usulidir.

Ushbu usullardan eng samarali natija keltiradigan bu albatta, ssenariylar tahlili hisoblanadi. Uning afzalliklari shundan iboratki, risklarni oldindan aniqlash imkonini beradi, bankning barqarorligini ta’minlaydi, kapital va likvidlilikni rejalashtirishga ko‘mak berishi bilan birga nazorat organlari talablarini bajarishga

ham xizmat qiladi. Mazkur stress-test turidan, odatda, banklarda kapitalning yetarlilik darajasi, banklarning likvidlilik holati va ko‘rsatkichlari, banklarning daromadlari (foizli va foizsiz) va aktivlarning sifatiga tashqi ta’sirlarni aniqlashda foydalaniladi. Asosiy ssenariy turlari sifatida:

1. Bazaviy ssenariy; 2. Noxush ssenariy; 3. O‘ta noxush ssenariy.

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Biznesni rivojlantirish banki ATB da ham stress-test o‘tkazishda ssenariylar tahlilidan foydalaniladi. Unga ko‘ra ssenariylarning 3 ta toifasi mavjud bo‘lib, ular “barqaror”, “stressli ssenariy” va “inqirozli ssenariy” kabi toifalarga ajratiladi.

14-jadval.

Biznesni rivojlantirish banki ATB 2025-yil 3-chorak yakuni bo‘yicha o‘tkazilgan stress test tahlili[21]

Ko‘rsatkich / Davr	Talab qilib olguncha	Oktyabr 2025	Noyabr 2025	Dekabr 2025	Yanvar 2025	Fevral 2025	Mart 2025
1 Ssenariy bo‘yicha o‘zgarish							
Aktivlar	6 154	1 639	860	1 141	866	960	829
Majburiyatlar	1 427	847	921	718	1 133	748	787
Ssenariy bo‘yicha kutilayotgan tushum		**253**	**371**	**505**	**383**	**497**	**553**
Jami kredit qaytishi 95%		-21	-23	-23	-24	-22	-22
Qo‘shimcha depozit jalb qilinishi		125	125	125	125	125	125
Kredit liniya jalb qilinishi		148	269	403	281	393	450
Ssenariy bo‘yicha kutilayotgan chiqim		**752**	**752**	**752**	**752**	**752**	**752**
Yangi kredit berish prognozi		752	752	752	752	752	752
Jami aktiv	6 154	1 892	1 231	1 646	1 249	1 457	1 382
Jami majburiyat	1 427	1 598	1 673	1 470	1 885	1 500	1 539
Net "GAP" POSITION (+/-)	4 727	294	-441	176	-636	-43	-157
Cumulative "GAP" POSITION (+/-)		**5 021**	**4 579**	**4 755**	**4 119**	**4 076**	**3 918**

Senariy bo‘yicha o‘zgarishlar ta’siri asosida o‘tkazilgan GAP tahliliga ko‘ra, kreditlarining qaytuvchalik darajasi o‘rtacha 95,0%ni tashkil etishi va tendensiyaga asosan kreditlar ajratilishini hisobga olgan holda noyabr oyida -441 mlrd.. so‘m salbiy GAP yuzaga keladi.

2025- yil 1-oktyabr holatiga GAP tahlili ko‘rsatkichlariga kelgusi 6 oy davomida o‘tgan 9 oy davomida ajratilgan kreditlarning o‘rtacha summasi 751,8 mlrd..so‘m miqdoridan kelib chiqib, 6 oy davomida 4510,5 mlrd. so‘m kredit ajratilishi, rejaga ko‘ra 2695,3 mlrd. so‘m resurs jalb qilinishi, kreditlarni qaytarish darajasi 95%ni bo‘lishi prognoz qilgan holda, kelgusi davrda kumulyativ GAP holati tahlil qilib chiqildi. Ssenariy bo‘yicha o‘zgarishlar ta‘siri asosida o‘tkazilgan GAP tahliliga ko‘ra, salbiy kumulyativ uzilish kutilmaydi.

2025 yil 9 oyi davomida ajratilgan kreditlar miqdori Biznes-rejada belgilangan miqdordan kam bo‘lganligi sababli kelgusi oy va 3 oy davomida o‘rtacha kredit ajratish summasini o‘tgan 9 oy davomidagi o‘rtacha kredit ajratish miqdoridan kelib

[21] Biznesni rivojlantirish bankining 3-chorak yakuni asosida muallif hisob-kitoblari

chiqib belgilab, kredit ajratilishini likvidlik ko‘rsatkichlariga ta‘siri quyidagi 4 ta ssenariyda ko‘rib chiqildi. Bunda o‘rtacha kredit ajratish summasi oyiga 751,8 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda.

15-jadval.

Prognoz ma‘lumotlarga asosan jami kreditlar ajratilishining likvidlik ko‘rsatkichlariga ta‘siri[22]

№	Ssenariylar RO‘YXATI	YuLA koeffitsiyenti *(HLA rate, min. 10%)* ***Fakt: 17,1%***		Likvidlilikni qoplash me‘yori % *(LCR, min. 100%)* ***Fakt:174,0%***		Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori % *(NSFR, min. 100%)* ***Fakt: 107,5%***	
		O‘zgarish (+/-)	***Prognoz***	***O‘zgarish (+/-)***	***Prognoz***	***O‘zgarish (+/-)***	***Prognoz***
1	Oktabr oyi davomida **jami** kredit ajratilishi (751,8 mlrd..so‘m), 273,4 mlrd..so‘m resurs jalb qilish	-3,2%	13,9%	-24,0%	150,0%	-1,4%	106,2%
2	Kelgusi 3 oy davomida **jami** kredit ajratilishi (2255,4 mlrd..so‘m), 1195,6 mlrd..so‘m resurs jalb qilish	-6,5%	10,6%	-38,3%	135,7%	-1,7%	105,8%
	Milliy valyutada	***(HLA rate, min.10%) Fakt: 15,2%***		***(LCR, min. 100%) Fakt: 169,2%***		***(NSFR, min. 100%) Fakt: 103,6%***	
3	Oktabr oyi davomida **milliy valyutada** kredit ajratilishi (567,6 mlrd..so‘m), 125,0 mlrd..so‘m resurs jalb qilish	-3,9%	11,3%	-28,3%	140,9%	-0,9%	102,7%
	Xorijiy valyutada	***(HLA rate, min.10%) Fakt: 21,3%***		***(LCR, min. 100%) Fakt:183,2%***		***(NSFR, min. 100%) Fakt: 128,3%***	
4	Oktabr oyi davomida **xorijiy valyutada** kredit ajratilishi (184,2 mlrd..so‘m) 148,4 mlrd..so‘m resurs jalb qilish	3,2%	24,5%	40,5%	223,6%	-0,5%	127,8%

Stress-test natijalariga ko‘ra, kelgusi 3 oyda o‘rtacha ajratilgan kredit miqdori darajasida 2255,4 mlrd..so‘m miqdorida kredit ajratilishi, va Moliya institutlari va Investorlar bilan ishlash departamentlari tomonidan 1195,6 mlrd..so‘m miqdorida qo‘shimcha mablag‘ jalb etilishini hisobiga YuLA koeffitsiyenti - **6,5** bandga kamayib, o‘rnatilgan me‘yor buzilmaydi (10,6 foiz), ammo me’yorga yaqinlashadi. LCR koeffitsiyenti **-38,3** bandga kamayib, o‘rnatilgan me‘yor buzilmaydi (135,7%) va NSFR koeffitsiyenti **-1,7** bandga kamayib, o‘rnatilgan me‘yor buzilmaydi (105,8 foiz), ammo me’yorga yaqinlashadi.

Shuningdek, 567,6 mlrd..so‘m miqdorida milliy valyutada kredit ajratilishi, G‘aznachilik departament tomonidan 125,0 mlrd..so‘m miqdorida qo‘shimcha mablag‘ jalb etilishini hisobiga milliy valyutada LCR koeffitsiyentiga **-28,3** bandga kamayib, o‘rnatilgan me‘yor buzilmaydi (140,9%) va NSFR koeffitsiyentiga **-0,9** bandga kamayib, o‘rnatilgan me‘yor buzilmaydi (102,7 foiz), ammo me’yorga yaqinlashadi.

[22] Muallif ishlanmasi

AQSh dollari kursining tushib borish tendensiyasini hisobga olib, resurs bozorida xorijiy valyuta resurslari hajmining oshishi va foiz stavkalarining pasayishi kutilayotganligini inobatga olib, xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish choralarini ko‘rish, bank foiz daromadini oshirish, daromad keltirmaydigan aktivlarni daromad keltiradigan aktivlarga joylashtirish choralarini ko‘rish lozim.

Shu bilan bir qatorda kreditlarni qaytaruvchanlik darajasini pasaytirmaslik, muddatli va muddati o‘tgan kreditlarni undirish choralariga e‘tibor qaratish kerak.

16-jadval.

Biznesni rivojlantirish banki ATBda muammoli kreditlarning sog‘lomlashishi ehtimolini baholash bo‘yicha stress-test[23]

(01.10.2025 y, mlrd.. so‘m ekv.)

Kredit PORTFEL prognozi	Fakt (NPLs)		Ssenariylar	Prognoz	Prognoz NPL summasi	Ssenariylar	NPL sog‘lom-lashishi so‘mda	Prognoz (NPLs)	
	Summa	Ulush (%)	Standart va Substandart kreditlarning NPLga o‘tishi_ %			Muammoli kreditlarni NPLdan chiqishi _ %		Summa	Ulush (%)
24 536,9	1 411,0	**5,9**	1,88	369,4	2 128,2	15,11	**487,4**	1 293,0	**5,27**
			1,70	334,1	2 088,5	15,56	**492,7**	1 252,4	**5,10**
			1,87	367,5	2 125,9	16,10	**518,9**	1 259,6	**5,13**
O‘rtachasi			**1,82**	**357,0**	**2 114,2**	**15,59**	**499,7**	**1 268,4**	**5,17**

Stress-test natijasiga ko‘ra, sifatiga ko‘ra tasnifi standart va substandart kreditlarning o‘rtacha 1,82%i NPLga o‘tsa va muammoli kreditlarning (NPL) o‘rtacha 15,6% qismi sog‘lomlashib borsa, NPL joriy 5,9%dan 2025-yil 4-chorak yakunida o‘rtacha 5,17%gacha (-0,73% bandga kamayishi) tushishi mumkin.

Banklarning kredit portfeli o‘sishi va risk o‘rtasida (ayniqsa, kredit riski) to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Katta o‘sish banklarda kreditlar sifatini pasayishiga, mijozlarni kreditlash mezonlari soddalashtirishiga va natijada muammoli kreditlar ortishiga olib keladi.

Ushbu tahlillardan kelib chiqib, bank aktivlari samaradorligini oshirishda kredit riskini boshqarish bo‘yicha stress-ssenariyning omili sifatida kredit portfelining o‘sishi 2 foiz bo‘lganda “barqaror ssenariy”, 3 foiz bo‘lganda “stressli ssenariy” va 4 foiz bo‘lganda “inqirozli ssenariy” deb tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining **«O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari»** deb nomlangan uchinchi bobda Mamlakatimiz banklarida aktivlar samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar va bank aktivlari samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini takomillashtirish yoritilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotning natijalariga asoslangan holda respublikamizda tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Bank aktivlari samaradorligini oshirishda kredit ta’minotini rasmiylashtirish, uni doimiy monitoring qilish, ta’minotning qiymatini saqlab qolishi, har bir ta’minot bo‘yicha alohida yondashuv ishlab chiqishi hamda talablarini aniq belgilanishi va ularni hisobini yuritishni takomillashtirish lozim.

[23] Biznesni rivojlantirish bankining hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Kredit ta’minoti sifatida qimmatli qog‘ozlarni olish amaliyotini rivojlantirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Shundan kelib chiqib, bank aktivlari sifatini oshirishda kredit ta’minoti sifatida kotirovka qilinadigan aksiyalar taqdim etilganda kredit muddati 18 oygacha bo‘lganda aksiyaning birja bozoridagi narxining 80 foizigacha, 18 oydan 60 oygacha bo‘lganda 70 foiz va 60 oydan oshganda 60 foiz etib belgilashni taklif qilish mumkin. Ushbu taklifni quyidagi tarzda ilmiy asoslash mumkin:

qimmatli qog‘ozlarning fond bozoridagi muddatiga qarab tabaqalanishi bevosita risklar bilan bog‘liq bo‘lib, muddat qisqa bo‘lganda risklar darajasi ham past bo‘ladi va natijada diskont darajasi ham kamayadi. Ammo korporativ qimmatli qog‘ozlar yuqori riskli hisoblanganligi sababli ma’lum darajada diskont ushlab turish tavsiya etiladi. Xususan, 18 oygacha bo‘lganda fond bozorida keskin pasayish qayd etilishi darajasi nihoyatda past (fors-major holatlaridan tashqari) va 20 foizni risk uchun to‘lov yoki diskont sifatida saqlab qolish mumkin;

18 oydan 60 oygacha bo‘lganda bozor riski darajasi ortadi, qolaversa tashqi omillar ta’siri ham kuchayadi. Xususan, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, regulyator talablari (asosiy stavka darajasi, majburiy zaxira normasi va boshqalar), mijozning moliyaviy holati kabi omillar ta’siri kuchayishi mumkin;

60 oydan oshganda tashqi omillar darajasi yanada kuchayadi va diskont uchun 40 foiz ajratish ijobiy samara berishi mumkin. Bunda tashqi bozorda kutiladigan inqirozlar, bozor sikllari holatini oldindan bilish o‘ta murakkab hisoblanadi.

2. Kuchaytirilgan monitoring mexanizmini joriy qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. ushbu salbiy holatni oldini olish uchun quyidagi ilmiy taklifni keltirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

banklarda kredit va unga to‘lanadigan foizlar to‘lovini surunkali ravishda muddatini o‘tkazish holatlariga yo‘l qo‘yayotgan, biznes reja ko‘rsatkichlarini 60 foizdan kam bajarayotgan hamda kredit shartlarini muddatida bajarmagan yuridik shaxslar bo‘yicha har chorakda bir marta joyiga chiqqan holda monitoring o‘tkazish.

Ushbu taklifni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar yoki majburiy to‘lovlarning kechikishi bankning likvidligi va moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

biznes-reja bajarilishi bo‘yicha 60 foizli chegaraning qo‘yilishi esa mijozning “jiddiy moliyaviy og‘ishi” hisoblanadi va xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi;

uch oylik muddatning ko‘rsatilishi esa mijozning moliyaviy holatini tez aniqlash, unga real baho berish va bankning qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini oshiradi.

3. Banklarda kredit qarzdorliklari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish, muammoli kreditlar yuzaga kelishini oldindan aniqlash tizimlari va dasturlarini ishlab chiqish va kredit qarzdorliklarini so‘ndirish jarayonini samarali amalga oshirish kerak.

Oxirgi yillarda bank aktivlari tarkibida investitsiyalar eng tez o‘sgan aktivlar hisoblanadi. xususan, 2022-yilda 4,4 foizdan 2026-yilga kelib 11,1 foizga yetgan va bank aktivlari tarkibida kreditlardan (63,5 foiz) keyingi eng yirik aktivga aylanib ulgurdi. Shu jihatdan investitsiyalarga alohida e’tibor qaratish lozim. Ammo, investitsiyalar ham yuqori riskli aktivlar bo‘lganligi sababli (ayniqsa, qimmatli qog‘ozlar) ularga chegara belgilash va shunga qarab “status” qo‘yish maqsadga muvofiq. Xususan, bank investitsiyalari samaradorligini ta’minlashda qimmatli

qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning maksimal darajasi 45 foizdan yuqori bo‘lganda “yuqori risk”, 45-40,5 foiz bo‘lganda “o‘rtacha risk”, 40,5 foizdan kam bo‘lganda “past risk” etib belgilash va chegara qiymatini minimal 45 foiz bo‘lishini ta’minlash taklifini keltirish mumkin.

Buning ilmiy jihatlari quyidagilar:

bank investitsiyalarining qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan miqdoriga qarab banklarda fond riski paydo bo‘ladi va bu bozor narxlarining keskin o‘zgarishi, kapitalni yo‘qotish ehtimoli va likvidlikni pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun 45 foizli chegara kritik nuqta sifatida belgilanishi kerak;

chegara qiymatini minimal darajasini belgilash bank investitsiya siyosatini yanada faollashtiradi, qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlarni oshiradi va aktivlar diversifikatsiya darajasini yaxshilanishiga olib keladi;

risklar bo‘yicha chegara o‘rnatish xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan “portfolio risk threshold” va “risk appetite framework” tamoyillariga mos keladi.

XULOSA

Tijorat banklarining aktivlari samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Bank aktivlarining samaradorligi bo‘yicha xorij va mahalliy olimlarning fikrlarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosani shakllantirdik: birinchi guruh olimlar aktivlar samaradorligini bankda risklarni boshqarish tizimi, ularni ishlash mexanizmi va usullari bilan asoslaydi, ikkinchi guruh olimlar esa bank aktivlari samaradorligini bankda ularni boshqarish bilan, ya’ni bank menejmentining samarali ishlashi va kreditga layoqatliligi bilan izohlaydi. Yana bir guruh olimlar esa bank aktivlari samaradorligida uning mulkchilik shakli va resurslari muhim ekanligini ta’kidlaydi.

2. Tadqiqot va tahlil natijalariga asoslanib, aytish mumkinki, bank aktivlari samaradorligining “Amerika modeli” (JPMorgan)da aktivlar samaradorligi yuqori darajadagi bank daromadlari diversifikatsiyasi va sifatli aktivlar hisobiga ta’minlangan bo‘lsa, “Xitoy modeli” (ICBC)da yuqori foyda marja hisobiga emas, balki yirik iqtisoddagi ishtiroki va past xarajatlar hisobiga shakllangan. Samaradorlikning "Rivojlanayotgan bozorlar modeli" (SBI, Hindiston misolida)da aktivlar samaradorligining asosiy drayveri yuqori sof foizli marja hisoblanadi. Aynan ushbu model xususiyatlari jihatidan O‘zbekiston bank tizimiga yaqin bo‘lib, marja yuqoriligi aktivlardagi mavjud muammolarni yopishga va bankning samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

3. Mamlakat bank tizimida 2022-2024-yillarda kredit portfeli sifati yomonlashgan va muammoli kreditlarning hajmi keskin oshgan (13,9 trln. so‘mdan 21,1 trln. so‘mga), qoniqarsiz kreditlar hajmining ko‘payishi kelgusida muammoli kreditlarning yanada oshishiga imkon yaratadi, umidsiz kreditlar ulushining kamayishi ijobiy qaralsa-da, lekin uning kamayishi kreditlardan hisobdan chiqarilishi bilan asoslanadi. Umuman olganda, bank kredit portfelida risklar darajasi juda yuqori, bank kredit sifati pasaygan va ularni boshqarishda ma’lum muammolar borligi va risk-menejment tizimini takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

4. Biznesni rivojlantirish bankida 2 yildan ortiq aktivlarning ulushi 50 foizdan yuqori, bir yilgacha bo‘lgan aktivlarning ulushi esa 30 foizdan yuqori bo‘lib, 31 kundan 1 yilgacha bo‘lgan aktivlarning ulushi 2022-yilda 21,4 foiz bo‘lsa, 2024-yilga

kelib 17,2 foizgacha qisqargan. Biznesni rivojlantirish banki aktivlari tarkibida uzoq muddatli aktivlarning ulushi barqaror va bu holat bankning bankning foizli daromadlarini oshirishga olib kelmoqda. Shuningdek, bankning aktivlarida likvid aktivlar ulushining nisbatan pastligi bank resurslarini asosiy qismini uzoq muddatli aktivlarga joylashtirganligidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida, bankning likvidlilik riski darajasini yuzaga keltiradi va kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarga duch kelish xavfini oshiradi.

5. Banklarda tegishli davr bo‘yicha moliyaviy instrumentlar jamoaviy va individual ahamiyatli aktivlarga guruhlanadi. Qadrsizlanish ostiga zaxiralarni hisob-kitob qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

- qadrsizlanish alomatlariga ega bo‘lgan va individual-ahamiyatli aktivlar bo‘lgan moliyaviy instrumentlar bo‘yicha individual asosda.

- ahamiyatlilik darajasidan past bo‘lgan qarzdorlikka ega bo‘lgan moliyaviy instrumentlar yoki qadrsizlanish alomatlariga ega bo‘lmagan individual-ahamiyatli moliyaviy instrumentlar bo‘yicha jamoaviy asosda.

6. 2022-2024-yillarda bank aktivlari va ularga tashkil etilgan zaxiralar dinamikasida barcha bank aktivlari o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, zaxiralar ham mutanosib ravishda o‘sib bormoqda hamda ayrim pozitsiyalarda keskin o‘zgarishlar kuzatilganligini banklarda risklarni hisobga olish kuchayganligi bilan asoslanadi. Aktivlar tarkibidagi moliyaviy instrumentlar bo‘yicha mijozlarning majburiyatlari 2022-yilda 0,26 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 79,34 foizga yetgan. Kreditlar bo‘yicha tashkil etilgan zaxira 2024-yilga kelib 18,4 trln. so‘m yoki 3,58 foizga yetgan. Tahlil qilingan davrda qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar hajmi 1,7-martaga oshgan va 45,4 trln. so‘mga yetgan.

7. Regressiya natijalari modelning ishonchliligi va uning izohlash qobiliyatining yuqoriligini aniq ko‘rsatadi. F-statistikaning 84.54 bo‘lishi va Prob > F qiymatining 0.000 chiqishi, modelda tanlangan omillar majmuasi muammoli kreditlar darajasiga statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini bildiradi. R-kvadratning 0.9077, mos ravishda Adjusted R-kvadratning 0.8969 bo‘lishi modeli iqtisodiy mazmun jihatdan ham juda barqaror ekanini ko‘rsatadi. Aksariyat empiric tadqiqotlarda bank ichki o‘zgaruvchilaridan foydalangan regressiyalar odatda 0.7- 0.85 atrofida R^2 beradi. Ushbu tadqiqotda R^2 ning 0.91 chiqishi model bank faoliyatidagi asosiy risk determinantlarini juda aniq tanlaganini bildiradi.

8. Kredit risklarini boshqarish siyosati bankda kredit risklarini aniqlash, baholash, tasdiqlash va boshqarish bo‘yicha asosiy tamoyillarni o‘z ichiga olishi kerak va bunda har bir bank o‘z imkoniyatlari va moliyaviy holatidan kelib chiqib belgilashi talab etiladi. Shuningdek, ushbu siyosat bankning umumiy kredit risklarini boshqarish tizimining bir qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi - kredit ajratish va kredit riskini boshqarish uchun yagona standartlar va tartib-taomillarni belgilashdir. Odatda kredit risklarini boshqarish siyosatida bank tomonidan kredit ajratishda amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlar va mezonlar belgilab berilgan bo‘lishi shart va bu orqali bankning kredit portfelini faol va oldindan boshqarish, ehtimoliy kredit yo‘qotishlarini minimallashtirish va aksiyadorlar uchun qoniqarli daromadni ta’minlash ko‘zda tutiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/2025.27.12.1.44.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ СИНГАПУРСКОМ ИНСТИТУТЕ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В ТАШКЕНТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХОЖИБЕКОВА ЗИЛОЛА ШАВКАТ КИЗИ

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

08.00.07 – “Финансы, денежное обращение и кредит”

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2026 год

Тема диссертации доктора философии по экономическим наукам (Doctor of Philosophy) зарегистрирована под номером B2025.2.PhD/Iqt5461 в Высшей аттестационной комиссии

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.mdis.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Умаров Зафар Абсаматович** доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Файзуллаев Ёдгор** кандидат экономических наук, доцент
	Бердияров Бахриддин Товашарович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	**Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «13» 11 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней за № DSc.03/2025.27.12.1.44.01 при Сингапурском институте развития менеджмента в Ташкенте. Адрес: 100047, г. Ташкент, проспект Бунёдкор, дом 28. Тел.: 71 271 77 01. E-mail: info@mdis.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Сингапурского института развития менеджмента в Ташкенте (зарегистрирована за № 04). Адрес: 100047, г. Ташкент, проспект Бунёдкор, дом 28. Тел.: 71 271 77 01.

Автореферат диссертации разослан «30» 10 2026 года.
(протокол реестра № 04 от «30» 10 2026 года).

Н. Тухлиев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор, академик Академии наук Узбекистана

Т. А. Хасанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Д. А. Ишанходжаева
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется обеспечению эффективности активов коммерческих банков, предварительному планированию и оптимизации их роста, рациональной организации банковских расходов для увеличения доходов, учету банковских рисков при инвестировании средств и готовности к возможным неблагоприятным ситуациям в целях обеспечения устойчивости банковской системы. По данным Всемирного банка, «в 2024 году доля проблемных банковских кредитов в совокупных активах составила в США 0,95 процента, в Канаде – 0,80 процента, в Швейцарии – 0,85 процента, в Дании – 0,94 процента, в Великобритании – 0,97 процента. В то же время рентабельность активов банка JP Morgan (США) составила 1,38 процента, Royal Bank of Canada (Канада) – 0,95 процента, Commonwealth Bank (Австралия) – 0,92 процента, а показатели рентабельности капитала составили: JP Morgan – 18 процентов, Commonwealth Bank – 14,5 процента, Royal Bank of Canada – 14,2 процента и HSBC – 12 процентов»[24]. Повышение эффективности активов коммерческих банков предполагает рациональное использование имеющихся ресурсов, увеличение банковских доходов и сокращение операционных расходов, дальнейшее повышение степени диверсификации портфеля активов, снижение уровня банковских рисков и ограничение их негативных последствий.

В мировом масштабе особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на эффективное использование активов коммерческих банков и повышение уровня их рентабельности. Проводятся исследования таких важных вопросов, как включение показателя роста кредитного портфеля в качестве фактора стресс-сценария управления кредитным риском и его классификация по сценариям при повышении эффективности активов банков, а также установление минимального уровня порогового значения максимальной доли инвестиций в ценные бумаги в целях обеспечения эффективности банковских инвестиций.

В Узбекистане при реформировании банковской системы особое внимание уделяется повышению эффективности банковских активов, предварительному выявлению возможных рисков посредством стресс-тестирования и формирования профиля банковских рисков для обеспечения устойчивости банков. В республике определены задачи «проведения независимой оценки качества активов банков с государственным участием и принятия мер по улучшению качества их кредитных портфелей, в том числе путем практического содействия в работе с неработающими кредитами»[25], а также «проведения инвентаризации имущества банков с государственным участием,

[24] https://data.worldbank.org/indicator

[25] Указ Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года № ПФ-5992 «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы» // Национальная база данных законодательства, 12.05.2020.

выявления и реализации непрофильных активов, сокращения доли иностранной валюты в активах банков»[26]. Для выполнения данных задач актуальным является применение зарубежной практики оптимизации структуры банковских активов, повышения диверсификации активных операций, увеличения количества и качества современных банковских услуг и повышения эффективности активов посредством формирования резервов.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных законами Республики Узбекистан от 11 ноября 2019 года № ЗРУ-582 «О Центральном банке Республики Узбекистан», от 5 ноября 2019 года № ЗРУ-580 «О банках и банковской деятельности»; указами Президента Республики Узбекистан от 27 декабря 2024 года № УП-227 «О внесении изменений и дополнений в некоторые указы Президента Республики Узбекистан», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан — 2030»», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 12 мая 2020 года № УП-5992 «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы»; постановлениями Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2017 года № ПП-3270 «О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы республики», от 24 марта 2023 года № ПП-102 «О дополнительных мерах по сокращению государственного участия в экономике», от 23 марта 2018 года № ПП-3620 «О дополнительных мерах по повышению доступности банковских услуг», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» развития науки и технологий республики.

Степень изученности проблемы. Теоретические и практические аспекты обеспечения и повышения эффективности активов коммерческих банков отражены в научных трудах зарубежных ученых-экономистов F.Mishkin, A. Berger, Humphrey, Joseph P. Hughes va Loretta J. Mester, Larry M. Seiford va Joe Zhuga, John P. Bonin, Alejandro Micco, Ugo Panizza, Panayotis P. Afanasoglu, Asli Demirgüç-Kunt, Harry Huizinga, Mouna Rekik, Maha Kalai, M.A.Gulamhussen, C.M.Pinheiro, A.F.Pozzolo и других исследователей.[27]

---

